



2023/6

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Aymatova Z. G'. XIX asrda O'Rta Osiyo musulmonlarining haj ziyorati	7
	Baymatov A. K. O'zbekistonda uy-joy siyosatining milliy modelini yaratish omillari	10
	Boltayev B. B. Yong'in xavfsizligi tarixi (targ'ibot markazi muzeyi misolida)	13
	Khamdamova S. S. Philosophical-educational notions at the literature of central asia in 19-20 centuries (on the example of Mahmudhoja Behbudiy)	18
	Koshanov B. A. Qoraqalpog'iston davlat arbobi qallibek kamalov	22
	Norqo'chqarov X. E. Afg'oniston o'zbeklarida o'zbek tilining holati va hududiy-dealektik tafovutlar: tarixiy yondoshuv (XX asr – XXI asr boshlari)	26
	Ochilov I. Xorazm vohasi aholising turmush tarzidagi qadimiy diniy e'tiqodlar izlari	31
	Orziyev M. Z. XX asrning 70-80 yillarida O'zbekistonning Angola va Mozambik bilan munosabatlari xususida...	35
	Qudratov Sh.Yo. Buxoro amirligi tasarrufidagi bozorlar va savdo markazlari faoliyatiga doir ayrim mulohazalar	39
	Usmonov B. B. O'zbekiston va tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi	42
	Назаров О. М. Усиление хлопковой монополии в сурхандарьинской области и его социально-экономические последствия	45
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Amonov U. S. Ustoz duosin olgan Ustoz	49
Арипова Х. А. Особенности функционирования ключевых мотивов в романах дины рубиной «почерк леонардо» и «синдром петрушки»	51	
Болтаева М. Ш. Инновационные методы преподавания русского языка и литературы	54	
Israilova D. A. The role of Fairy tales in teaching English language and values to preschool children	58	
Rejapov I. O. Son komponentli frazeologik birliklarning milliy- madaniy o'ziga xosliklari	62	
Soberova M. O'Tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida o'qituvchi obraziga chizgilar va davr talqini	67	



TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

- Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori
Majidov Inom Urushevich, texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti.
Olimov Qahramon Tanzilovich, pedagogika fanlari doktori, professor, A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali
Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Musurmonova Oyniso, pedagogika fanlari doktori, professor
Safarova Rohat G'aybulloyevna, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor, O'zbekiston jaxon tillari universiteti

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

- Artamonova Yekaterina Iosifovna*, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti
Yemelyanova Irina Yevgenyevna, pedagogika fanlari doktori, professor, Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti, Rossiya
Kuzmenko Galina Anatolevna, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti
Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor, Chelyabinsk davlat akademiyasi
Kulshov Vladimir Vasilevich, pedagogika fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina
Lazarenko Irina Rudolfovna, pedagogika fanlari doktori, professor, Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya
Filippova Oksana Gennadevna, pedagogika fanlari doktori, professor, Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti, Rossiya
Xristo Kyuchukov, pedagogika fanlari doktori, Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori, Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti, Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya
Kumskov Mixail Ivanovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti
Maksimenco Sergey Dmitriyevich, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor, Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi
Padalka Oleg Semenovich, pedagogika fanlari doktori, professor, M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina
Mamedova Irada, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i
Timur Xo'jaog'li, tilshunos va adabiyotshunos olim, Michigan universiteti professori (AQSh)
Nurettin Hatunoglu Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)
Mulldjanov Sayfullo Kuchakovich, tarix fanlari doktori, professor, Tojikiston milliy universiteti
Gushko Sergey Vladimirovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

O'ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

- Inoyatov Sulaymon Inoyatovich*, tarix fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti
Rajabov Qahramon Kenjayevich, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi
Rashidov Oybek Rasulovich, tarix fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI

- Madjidova Ra'no Urishevna*, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sharipova Laylo Frunzeyevna, filologiya fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti
Yusupova Hilola O'ktamovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doytori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti

PEDAGOGIKA FANLARI

- Tolipov O'tkir Qarshiyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
Olimov Shirinboj Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti
Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent, Buxoro davlat universiteti
Tilavova Matlab Muxammadovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat universiteti
Sohibov Akram Rustamovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Qarshi davlat universiteti
Umarov Buxshullo Jo'rayevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat universiteti
Hasanova Gulnoz Qosimovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat universiteti
Inoyatov Abdullo Shodiyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, Buxoro davlat universiteti

PSIXOLOGIYA FANLARI

- Umarov Buxriddin Mingbayevich*, psixologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat pedagogika universiteti
Bafayev Muxiddin Muxammadovich, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

IQTISODIYOT FANLARI

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori
Mamanazarov Abdulkakim Bozorovich, iqtisodiyot fanlari fan nomzodi, dotsent, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

FALSAFA FANLARI

- Namozov Bobir Bahriyevich*, falsafa fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti

SIYOSIY FANLAR

- Jumayev Rustam G'aniyevich*, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti

BIOLOGIYA FANLARI

- Artikova Hafiza To'yurodovna*, biologiya fanlari doktori, dotsent, Buxoro davlat universiteti



ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

Джусраев Рисбой Хайдарович, доктор педагогических наук, академик АН РУз
Шамсутдинов Рустамбек Темирович, профессор Андиганского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук
Мажидов Ином Урушевич, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека
Олимов Кахрамон Танзилевич, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена
Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович, доктор технических наук, профессор
Мусурмонова Ойнисо, доктор педагогической наук, профессор
Сафарова Рохат Гайбуллоевна, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

Артамонова Екатерина Иосифовна, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук
Емельянова Ирина Евгеньевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия
Кузьменко Галина Анатольевна, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья
Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии
Кулишов Владимир Васильевич, доктор педагогических наук, профессор. Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина
Лазаренко Ирина Рудольфовна, доктор педагогических наук, профессор. Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия
Филиппова Оксана Геннадьевна, доктор педагогических наук, профессор. Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия
Христо Кючуков, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия
Кумсков Михаил Иванович, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
Максименко Сергей Дмитриевич, академик, доктор психологических наук, профессор. Академик Национальной академии педагогических наук Украины
Падалка Олег Семенович, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина
Хазретали Турсун, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави
Мамедова Ирада, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана
Тимур Хужагули, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)
Nurettin Natipoğlu, Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)
Муллоджанов Сайфулло Кучакович, доктор исторических наук, профессор. Национальный университет Таджикистана
Гушко Сергей Владимирович, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

Иноятов Сулаймон Иноятович, доктор исторических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Раджабов Кахрамон Кенжаевич, доктор исторических наук, профессор, ведущий научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана
Ойбек Расулович Рашидов, доктор исторических наук. Бухарский государственный университет
Филология
Маджидова Рано Уришевна, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков
Шарипова Лайло Фрунзеевна, доктор филологических наук. Бухарский государственный университет
Нигматова Лолахан Хамидовна, доктор филологических наук. Бухарский государственный университет
Юсупова Хилола Уктамовна, кандидат филологических наук, доцент. Бухарский инженерно-технологический институт
Рузиева Мохичехра Якубовна, доктор философских наук, доцент. Бухарский государственный университет
Педагогика
Толипов Уткир Каршиевич, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Джусраев Хуснидин Олтинбаевич, доктор педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Тилова Матлаб Мухаммадовна, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, PhD по педагогическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет
Сохибов Акрам Рустамович, кандидат педагогических наук, доцент. Каршинский государственный университет
Умаров Бахирулло Джусраевич, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Хасанова Гулноз Касимовна, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Иноятов Абдулло Шодиевич, доктор философских наук (PhD) в области педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Психология
Умаров Бахриддин Мингбаевич, доктор психологических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет
Бафиев Мухиддин Мухаммадович, PhD по психологическим наукам. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Экономика
Куролов Кобулжон Кулманович, доктор экономических наук, профессор. Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова
Маманазаров Абдурахим Бозорович, кандидат экономических наук, доцент. Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
Философия
Намозов Бобир Багриевич, доктор философских наук. Бухарский государственный университет
Политика
Джумаев Рустам Ганиевич, доктор философии (PhD) по политическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет
Биология
Артикова Хафиза Тоймуродовна, доктор биологических наук, доцент. Бухарский государственный университет



**BUXORO AMIRLIGI TASARRUFIDAGI BOZORLAR VA SAVDO MARKAZLARI
FAOLIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**

*Qudratov Shuhrat.Yodgorovich,
Buxoro davlat universiteti,Arxeologiya va Buxoro
tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi savdo markazlari va bozorlari faoliyati, ularni tashkil etishda savdogarlarning xizmatlari katta ekanligi, poytaxt bozorlaridan tashqari tuman bozorlarining ayrimlari juda mashhur bo'lib, bu XX asr boshidagi sayohatchilar tomonidan qayd etib o'tilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritib o'tilgan. Shu bilan birga amirlik ichki savdosida uyushtiriladigan savdo yarmarkalari muhim bolib har yili Navro'z bayrami kunlarida Buxoro amirining shahar tashqarisidagi Sherbudun saroyi yonidagi xalq sayli paytida yirik savdogarlar tomonidan tashkil etilgan vaqtinchalik dokonlarda mahsulotlar sotilganligi to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berib otilgan.

Kalit so'zlar. Savdo markazlari, savdogar, savdo rastasi, do'kon, qorako'l, qo'lyozma, guzar, import, mol ayirboshlash, yarmarka.

**SOME DISCOURSES ON THE MARKETS OF THE EMIRATE OF BUKHARA AND
THE ACTIVITIES OF THE TRADE CENTERS**

*Kudratov Shukhrat Yodgorovich,
Senior lecturer of the Chair of Archeology and history, of Bukhara, (PhD), Bukhara state
university*

Annotation. This article details the activities of shopping centers and markets in the emirate of Bukhara, the fact that the services of merchants are great in their organization, some of the district's markets are very popular; in addition to the capital's markets, which were noted by travelers of the beginning of the 20th century. At the same time the detailed information on the, trade fairs organized in the domestic trade of the emirate were important, and every year on the days of the Feast of Navruz, products were sold with detailed information on the grounds that during the people's promenades next to the Sherbudun palace of the Emir of Bukhara outside the city were sold in temporary roadside stalls organized by large merchants.

Keywords. Shopping centers, merchants, trading stalls, shops, karakul skin, manuscripts, guzar, imports, exchange of goods, fairs.

**НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О РЫНКАХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА И
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ЦЕНТРОВ**

*Кудратов Шухрат Ядгарович,
Старший преподаватель кафедры Археология и история Бухары (PhD), Бухарский
государственный университет*

Аннотация. В данной статье подробно рассказывается о деятельности торговых центров и рынков в Бухарском эмирате, о том, что услуги торговцев великолепны в их организации, некоторые рынки района пользуются большой популярностью, в дополнение к столичным рынкам, которые были отмечены путешественниками начала XX века. В то же время подробная информация о важном значении ярмарок, организованные во внутренней торговле эмирата, и каждый год в дни праздника Навруз во время народных гуляний продавались товары рядом с дворцом бухарского эмира Шербудун за городом во временных лавках, организованных крупными торговцами.

Ключевые слова: Торговые центры, торговли, торговые палатки, магазины, казармы, рукописи, гузар, импорт, обмен товарами, ярмарки.

Kirish. Buxoro o'zining savdo markazlari va turli mamlakatlar savdogarlarning uchrashuv joyi bo'lgan bozorlari bilan mashhur bo'lgan. Bozorlar va savdo rastalari mahsulotlar turlariga ko'ra, Labihovuzdan qadimiy shaharning markaziy maydoni Registongacha cho'zilgan edi. Buxoro bozorlari o'zining mahobati bilan mashhur bo'lib, bu XX asr boshlarida sayohatchilar tomonidan qayd etib o'tilgan.

Buxoro bozorlari va savdo markazlari faoliyatini tashkil etishda savdogarlarning xizmati katta bo'lgan. Shaharning har bir dahasida savdogarlar yashaydigan guzarlar mavjud bo'lgan. Ular ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, katta savdogarlar va do'konchilar kabi tabaqalarga ajratilib, shaharning markazida do'koni bo'lganlari "timchi" deb atalgan. Mayda do'konlarning egalari pastroq tabaqadagi savdogarlar bo'lib, ulardan ham pastroqda har xil mahsulotlarning oldi sotdisi bilan shug'ullanadigan kichik savdogarlar faoliyat ko'rsatgan[1].

Savdogarlar nafaqat shaharlarda, balki qishloq va mavzelerde ham aholining katta qismini tashkil etgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy aholi vakillari o'zlari yetishtirgan mahsulotlarini qishloq va shahar bozorlarida hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlaganlar yoki sotganlar. Natijada mahalliy dehqonlarning ayrimlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nafaqat yetishtiruvchisi, balki

ularga qayta ishlov beruvchi hamda chakana savdoni amalga oshiruvchi sotuvchisiga aylangan [2]. Buxoro shahrida dehqonchilik mahsulotlarini sotishga ixtisoslashtirilgan "Paxta, ipak, bug'doy, arpa, jo'xori, tariq, kepak, xo'l va quruq mevalar, qovun va tarvuz, turli sabzavotlar bozorlari" ham mavjud bo'lgan. XX asr oxirida Buxoro shahrida 50 taga yaqin yopiq bozorlar bo'lib, 3ta don bozori, 1ta baliq, 1ta un, 1ta tuz, 3 ta ko'mir, 1ta metal buyumlar sotiladigan bozor, 2 ta poliz mahsulotlari, 3ta meva bozori, 6ta sut va sut mahsulotlari bozori, 2 ta yog' bozori va boshqalar faoliyat ko'rsatgan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligi tasarrufidagi bozorlar va savdo markazlari to'g'risidagi ma'lumotlar tarixchi, sayyoh, etnograf olimlar O.Suxareva, Yu.Skayler, X.Vamberi, A.Semyonov asarlarida batafsil yoritib berilgan. Buxoro bozorlarida nafaqat milliy mahsulotlar, balki dunyoning turli qismlaridan keltirilgan mahsulotlar ham mavjud bo'lgan. Ingliz mollari shaharga Afg'oniston orqali keltirilgani uchun Qobuli nomi bilan mashhur bo'lgan. Buxoro savdo markazlarida Rossiya mahsulotlari xaridorgir bo'lgan. Rossiyadan keltirilgan shakar Buxoroda arzon bo'lib, Toshkentga import qilingan[4].

Bozorlar har kuni gavjum bo'lib, Buxoroning tijorat poytaxti (metropolis) ekanligini namoyish etib turgan[5].

Shahar ko'chalarida tabiblar do'konlari, shuningdek, 60 ta chinni, 150 ta choynurushlik, 50 ta holvafurushlik, 60 ta misgarlik, 26 ta kitobfurushlik[6]do'konlari mavjud bo'lgan. Buxoro shahri darvozalari yaqinida ham bozorlar mavjud bo'lgan. Xususan, Samarqand darvozasi yaqinidagi gavjum bozori asosan non va go'sht mahsulotlari, sanoat usulida to'qilgan matolar va bo'yoqlar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ulgurji savdo qilingan[7].

Rus, ingliz, hind, afg'on va eron mollarining ulkan ombori bo'lgan Buxoro bozorlari Toshkent bozoridan 5 marotaba katta bo'lib, ularda nafaqat mahalliy mollarning, balki chet ellardan, xususan, qo'shni Shark mamlakatlaridan keltirilgan mollarning ham narxleri arzon bo'lgan. Sharqshunos olim A.A.Semyonov mahalliy bozor rastalarining boyligi hamda rang barangligi Sharq va G'arbda ishlab chiqarilgan mollarni sotib olish imkoniyatining kengligi haqida: "Buxoro bozorida II[vesariyadan keltirilgan quyultirilgan sut, Germaniyadan konsentrat holda keltirilgan Libix quruq sho'rvasi, Shanxayning zanjabil murabbosi, Birma poytaxti Rangundan olib kelingan xushbo'y shamlar, Malta orolidan, Hindistondan keltirilgan zardo'zlik ro'mollarini, hind rupiyalarini, Meksikaning kumush dollari, Turkiyaning oltin lirasini, ingliz funt sterlingini bemalol xarid qilsa bo'lardi"[8], deb yozadi.

Buxoro bozorlarining yana bir turi ot bozori. Bu davrda eng yaxshi transport turi ot bo'lganligi sababli amirlikda yilqichilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar talaygina bo'lgan. Qishloqda yashovchi aholi tomonidan qoramol bilan bir paytda ot ham boqilgan bo'lib, ehtiyojdan tashqari bozorga sotish uchun olib chiqilgan. Ot sotiladigan bozor o'sha davrlarda 2 ta bo'lgan. Biri Registon yaqinida bo'lib, haftaning shanba, dushanba va seshanba kunlari bo'lgan. Ikkinchi ot bozori chorshanba kuni Bahouddin bozori yaqinida tashkil etilgan. Buxoroda otlarning narxi yuqori bo'lib, 10 tilladan har yili Buxoro xarid qilingan. Asl zotli otlar sotish uchun bozorga olib chiqilmagan. Ular dallol (vositachi) lar orqali savdogarlar hovlisidan tanlab olingan. Bunday mumtoz otlar narxi 100-150 tillaga yetgan[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Tahlil va natijalar. Shaharda savdogarlar yashaydigan mahallalar ham kichik bozorlarga aylangan. Masalan, Arabon mahallasida yashagan yirik savdogar Salim Oxun o'z hovlisida qorako'l teri sotish bilan shug'ullangan. Amirlikda nafaqat savdogarlar balki chorvadorlar ham qorako'l teri savdosi bilan shug'ullanishgan. Jumladan, Choriqulboy, Murodboy kabi yirik chorvadorlar har yili Buxoro bozorlarida 20-30 ming donadan qorako'l teri sotishgan. Shuningdek, Haqqulboy, Po'latboy kabi badavlat chorvadorlarning har biri yiliga 15 ming donagacha, Yusufboy ismli boshqa bir shaxs esa 8-9 ming dona qorako'l terini shahar bozorlariga yetkazib bergan[10].

Buxoro amirligidagi yirik bozorlardan biri kitob bozori bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qadimiy qo'lyozma asarlar savdosiga bo'lgan talab kuchli bo'lgan. XIX asrning 80-90 yillarida Buxoroda O'rta Osiyodagi eng yirik boy va muhim kitob bozori bo'lgan. Bu yerda musulmon adabiyotlari, kitob, qo'lyozma manbalar arab, fors va turkiy tillarda bo'lib, ular orasida qimmatbaho va noyob kitoblar katta miqdorni tashkil qilgan. Samarqand, Qo'qon, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent kabi shaxarlardagi kitob bozorlari Buxoronikiday boy bo'lmay, kitob bozorlari va do'konlaridan hamda kitobfurushlar qo'lidan xohlagan kitobni topish mumkin bo'lgan[11] deb ma'lumot bergan. Kitob bozori Abdullaxon timida joylashgan 25-30 kishi savdo qilgan. Kitob va qo'lyozma manbalar mahalliy, rus va boshqa mamlakatlar qog'ozlarida turli ranglarda yozilgan. Kitob bilan savdo qiluvchi tadbirkorlarning har birida 20-30 tadan qo'lyozma kitoblar mavjud bo'lgan[12]. Kitobfurushlar qo'lyozmalarni masjid imomlari, madrasa mudarrisilari va badavlat kishilarga sotganlar. Jumladan, G'uzor begi yangi qurilgan madrasa kutubxonasi uchun Buxoro kitob bozoridan umumiy qiymati 75.000 tilla tangadan iborat turli mazmundagi kitoblarni sotib olgan[13].

XIX asr oxirlarida Buxoroda qul bozori ham mavjud edi. Bozorda haftaning seshanba-payshanba kunlari qul va cho'rilar sotilardi[14]. Qul bozorlari o'rta asrlardagidek gavjum bo'lmay, bozorda sotish uchun keltirilgan qullar 6-7 nafardan, cho'rilar 10-15 nafardan oshmagan[15]. Sotib olingan qullar erkinligidan butunlay mahrum bo'lib, ularning o'ndan bir qismigina qarindoshlari tomonidan berilgan pul evaziga ozod bo'lgan. Qul va cho'rilar meros qilib qoldirinishi, mahr uchun berilishi va sovg'a qilinishi mumkin bo'lgan. Qullarning mehnatidan asosan dala ishlarida, cho'rilar mehnatidan esa uy yumushlarida foydalanilgan[16].

Poytaxt bozorlaridan tashqari tuman bozorlarining ayrimlari, jumladan G'ijduvon bozori juda mashhur bo'lib, bu bozorga qozoq chorvadorlari o'n minglab bosh qo'y, qo'zi keltirib sotishgan [17]. Poytaxtga yaqin tumanlardagi Bahouddin, Hazrati Mir Kulol, Quyuq Mozop, Azizobod, Vang'ozi, Bo'ston, Kumushkent, Xargo'sh, G'ijduvon, Vardonze, Saripul, Galaosiyu, Hayrobod, Romitan, Jondor, Vobkent va Pirmast bozorlarining amirlikning asosan ichki, qisman tashqi savdosida o'z o'rni bo'lgan.



Buxoro atrofidagi bozorlar savdogarlar va xaridorlar manfaatlaridan kelib chiqib, belgilangan hafta kunlariga qarab ishlagan. Masalan, dushanba kuni G'ijduvon, Vardonze, Hazrati Mir Kulol, Galoosiyo bozorlari xizmat ko'rsatgan bo'lsa, seshanba kuni Yangi Buxoro bozori, chorshanba kuni Mozori Bahouddin, Hayrobod bozorlari, payshanba kuni Kumushkent, Bo'ston, Qum Mozor, yakshanbada esa Romitan, Vobkent bozorlari faoliyat ko'rsatgan[18].

Vamberining yozishicha, poytaxtdan unchalik uzoklikda bo'lmagan Afshona qishlog'ida har haftada, Varaxshada esa yilida 15 marta savdo yarmarkalari o'tkazilgan. Varaxshadagi yarmarka odatda mart oyining o'rtalarida boshlanib, 20 kun davom etgan[19].

Shuningdek, amirlik ichki savdosida uyushtiriladigan savdo yarmarkalari muhim o'rin tutgan. Har yili Navro'z bayrami kunlarida Buxoro amirining shahar tashqarisidagi Shirbudun saroyi yonidagi xalq sayli paytida yirik savdogarlar tomonidan tashkil etilgan vaqtinchalik do'konlarda mahsulotlar sotilgan[20].

Ancha qadimiy tarixga ega bo'lgan Vobkent bozorida ham savdo-sotiq nihoyatda qizg'in kechgan. Joylardagi bozorlarning har xil kunlarda faoliyat yuritishi savdo ahli - tadbirkorlar uchun ayni muddao edi. Vaholanki ularning ko'pchiligi hafta davomida bir necha bozorlarda savdo qilishga harakat qilishgan.

Buxoro bozorlarida yillik mol ayirboshlashning qiymati esa XIX asrning 80-90 yillarining boshlarida taxminan 40 million so'mga yetgan bo'lsa, ishlab chikarish va savdo sotiqlarning o'sishi 1910-1912 yillarga kelib Buxoro shahar bozorlaridagi savdo aylanmasi qiymati 91 million so'mga yetgan[21].

Buxoro shahri XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yirik savdo markazlaridan biri bo'lib, poytaxt va uning atrofidagi tuman bozorlari ancha gavjum edi. Hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan tartiblar asosida tashkil etilgan bozorlarlar va savdo markazlari tartibli bo'lib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirish uchun yetarlicha tartiblar o'rnatilgan edi.

Buxoro shahri va uning atrofidagi savdo markazlari hamda bozorlar hunarmand, dehqon, chorvador va yirik savdogarlar mahsulotlarini sotishlari uchun qulay manzil bo'lishi bilan birga aholining moddiy talabini ham qondira olgan.

Xulosa va takliflar. Xullas, Buxoro amirligidagi savdo markazlari hamda bozorlarda hunarmandlar tomonidan tayyorlangan barcha buyumlar, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari, mahalliy hamda xorijlik savdogarlar mahsulotlari aholi ehtiyojlarini inobatga olgan holda sotuvga olib chiqilganligi sababli doimo xaridorgir edi. Nafaqat poytaxt va uning atroflarida, balki barcha beklıklarda savdo markazlari faoliyati yaxshigina yo'lga qo'yilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX вв. Москва, 1966. - С.236.
2. Тижоратимиз ва мактаб// “Турон” газетаси. № 48. 1912 йил 30 декабрь.
3. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20-80 годы XIX века). Ташкент: Фан, 1990. -С.71.
4. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. - Б.303.
5. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. - Б.296.
6. Вамбери Х. Путешествие в Средней Азии. Москва, 1967. - С.145.
7. Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX вв.-С.47-48.
8. Қосимов Ф.Х. Халқаро муносабатлар тизимида Бухоро давлатининг ўрни (1900-1924 йиллар)// Бухоро давлат университети ахборотномаси, 2004, № 2. –Б. 56.
9. Йилки билан қорамол боқиш хусусида. // Туркистон вилоятининг газети, 1886 йил 4 октябрь. №64.
10. Сухарева О.А. Бухара XIX - начало XX вв. - С.243.
11. Вяткин В.Л. Бухарский книжный рынок. // Туркестанские ведомости. – 1897. № 64.
12. Вяткин В.Л. Бухарский книжный рынок.
13. О.Валидев. О собрания рукописей в Бухарском ханстве. Санкт-Петербург, 1916. - С.3.
14. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. Таржима ва изоҳлар муаллифи З.А.Саидбобоев. Тошкент: “O'zbekiston”, 2019. - Б. 291.
15. Соловьев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. Москва-Ленинград, 1936. - С. 77.
16. Бернс А. Путешествие в Бухару в 1831-1832 и 1833 гг. Часть II. Москва, 1849. - С. 21-22.
17. Небольсин П. Торговые связи среднеазиатские владений между собой и караванны между ним сообщение. Очерки торговли России со странами Средней Азии. Санкт-Петербург, 1856. - С.2.
18. Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. Москва, 1967.-С.230.
19. Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. Москва, 1967.-С.231.
20. Айний С. Асарлар саккиз томлик .VII том. “Эсдалиқлар” IV қисм. Тожик тилидан Абдулла Ҳақимов таржимаси. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 201.
21. Губаревич-Радобильский В.Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. Санкт-Петербург, 1905.-С.125.



Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6 октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилади.

Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали 2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика, физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фалсафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари, география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичига олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Республикаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий ва махсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация, интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллий ва кадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; узлуксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг давлат таълим стандартлари; ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидаги таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 20.12.2023. Буюртма №6347.
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.

ISSN 2181-1717 (E)



9 772181 171701

ISSN 2181-1709 (P)



9 772181 170902